

**O'lmas Umarbekov asarlarida frazeologizm va maqollarning
qo'llanilishi**

Xamidova Malika
O'zMU erkin tadqiqotchisi
mirkomilatavullayev83@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'lmas Umarbekov asarlari tahlilida ibora va maqollarning ifodalanishi, o'zbek erkak va ayollar nutqining leksik, frazeologik jihatdan xoslanishi, matnning pragmatik va sotsiopragmatik xususiyatlari, asarlardagi nutqiy aktlar tahlil qilindi.*

Kalit so'zlar: *O'lmas Umarbekov, obraz, ibora, maqol, erkak nutqi, ayol nutqi, leksik, sotsiopragmatika, pragmatika, nutqiy akt, iqtibos, stereotip, sotsial.*

Использование фразеологии и пословиц в произведениях Улмаса

Умарбекова

Хамидова Малика

внештатный научный сотрудник УзМУ

mirkomilatavullayev83@gmail.com

Аннотация: При анализе произведений Улмаса Умарбекова были проанализированы экспрессия словосочетаний и пословиц, лексические и фразеологические особенности речи узбекских мужчин и женщин, pragматические и социопрагматические особенности текста, речевых актов в произведениях.

Ключевые слова: Улмаса Умарбеков, образ, словосочетание, пословица, мужская речь, женская речь, лексика, социопрагматика, pragматика, речевой акт, цитата, стереотип, социал..

Use of phraseology and proverbs in Olmas Umarbekov's works

Hamidova Malika UzMU freelance researcher
mirkomilatavullayev83@gmail.com

Abstract: In the analysis of Olmas Umarbekov's works, the expression of phrases and proverbs, lexical and phraseological features of Uzbek men's and women's speech, pragmatic and sociopragmatic features of the text, speech acts in the works were analyzed.

Key words: Olmas Umarbekov, image, phrase, proverb, male speech, female speech, lexicon, sociopragmatics, pragmatics, speech act, quote, stereotype, social

Frazeologizmlarni sistemali ravishda o‘rganish asrimizning 40-50-yillariga kelib boshlangan bo‘lib, turkiyshunoslikda nisbatan yosh lingistik tadqiqot sohalaridan biri sanaladi. Xususan, turkiy frazeologizmlarning tashabbuskorlari, hech shubhasiz, S.K.Kenesboev va Sh.U.Rahmatullaev hisoblanadi. Ularning 40-yillarning ikkinchi yarmi va 50-yillarda amalga oshirgan tadqiqotlari turkiy frazeologiyaning shakllanishi va taraqqiyotida katta rol o‘ynaydi¹. Shu vaqtarda himoya qilingan nomzodlik dissertatsiyalari ham turkiy frazeologiyaning taraqqiyotida sezilarli iz qoldirdi².. Bu davrda S.N.Muratovning “Turkiy tillarda turg‘un so‘z birikmalari” (1961) nomli monografiyasi, Sh.U.Rahmatullaevning “O‘zbek frazeologiyasining ayrim masalalari” (1966), G.A.Bayramovning “Ozarbayjon tili frazeologiyasining asoslari” (1970) yaratildi. Shavkat Rahmatullayevning 1966- yilda himoya qilingan doktorlik dissertatsiyasi, shu asosda e’lon qilingan. “O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari” (1966) nomli

¹ Кенесбаев С.К. Қазақ тили қалыптанған соз топтары (қос сөздер, идиодер мен фразалар), докторлик диссертацияси – Алма-Ата, 1944; Кенесбаев С.К. Фразеологические парные выражения в казахском языке // Известия АН Каз.ССР, серия филологическая. № 82. выпуск 6. – Алма-Ата, 1952. – С. 3-13; Кенесбаев С.К. О некоторых особенностях фразеологических единиц в казахском языке // Известия АН Каз.ССР, серия филология и искусствоведение, выпуск 1-П. – Алма-Ата, 1954. – С. 6-28; Кенесбаев С.К. Қазақ тилининг фразеологиялық создиги. – Алма-Ата, 1977; Рахматуллаев Ш.У. Основные грамматические особенности образных глагольных фразеологических единиц современного узбекского языка. АКД. – М., 1952. – 21 с.

² Долганов Л.И. Пути развития идиоматики в современном турецком языке. АКД. – М., 1952; Сайфуллин И.Т. Устойчивые словосочетания в современном уйгурском языке. АКД.. – Л., 1953; Ахатов Г.Х. Фразеологические выражения в татарском языке. АКД. – Казань, 1954 ва бошқалар.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

monografiyasi bilan o‘zbek tilidagi frazemalarni lug‘aviy birlik sifatida o‘rganishni asosladi. Olimning talqinicha, har qanday frazeman ni frazeologik variant deyish uchun quyidagi belgilar inobatga olinishi lozim:

“1) Variantlar deb qaraluvchi qurilishlar turli-tuman leksik, grammatic o‘zgartishlar tufayli biri ikkinchisidan o‘sib chiqqan bo‘lishi, barchasi bir manbaga, bir asosga birlashuvi lozim.

2) Variantlar deb qaraluvchi qurilishlar asosida ayni bir obraz yotishi lozim (bu obrazning variantlarga ko‘ra, so‘nish-so‘nmasligidan, qay darajada uqlishidan qat’iy nazar).

3) Variantlar deb qaraluvchi qurilishlar ayni bir ma’noni anglatishi lozim (ular o‘zaro ma’noning kuchli-kuchsizligida, nutqiy, stilistik belgilarida farq qilishi mumkin).

4) O‘zaro o‘sib chiqqan variantlar qurilishida umumiy leksik komponent bo‘lishi shart (ikki va undan ortiq iboraning qurilishida umumiy leksik komponentning mavjud bo‘la olishidan qat’iy nazar)”³.

Umuman olganda, Sh.Rahmatullaev to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “variantlashish tufayli bir ibora boshqa bir iboraga aylanmaydi, bir iboraga xos obraz birligi, ma’no birligi saqlanadi. Variantlashish tufayli yuz beradigan o‘zgarishlar iboralarga xos yaxlitlikni yemirmaydi, parchalamaydi, balki iboraga xos yaxlitlik doirasida, shu yaxlitlik yo‘l qo‘ygan darajada voqe bo‘ladi. Aks holda yo ibora yo‘qqa chiqadi, yoki boshqa bir ibora barpo qilinadi”⁴.

O‘zbek tilida shunday iboralar borki, ular faqat erkak sotsial tipi nutqidagina uchraydi. Jumladan, «burnini yerga ishqamoq», «baqbaqangdan akang», «dabdallasini chiqarmoq», «jag‘ini ezib qo‘ymoq», «otimni boshqa qo‘yaman», «quling o‘rgilsin», “haromi”, «yuzimga tuflang» kabi iboralar, asosan, erkaklar nutqida qo‘llanishi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. O‘zbek erkak va ayollar nutqining leksik, frazeologik jihatdan xoslanishi, ayniqsa, qarg‘ish hamda so‘kishlarda yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi. “Dunyoda tilsiz xalq bo‘limgani kabi, maqolsiz til ham yo‘q”,

³ Рахматуллаев III. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 145.

⁴ Рахматуллаев III. Кўрсатилган манбаа.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

– degan edi tatar yozuvchisi Noqiy Esanbat. O‘zbek tili shaklan ixchan, chuqur mazmunli, nafis va jozibador maqollarga juda boy. Maqollarda so‘zlovchining mulohazali, pand-nasihatli fikri to‘liq ifodalanadi. Xalq maqollari shu xalqning butun tarixini, hayot yo‘lini aks ettiradi. Shuning uchun ham yozuvchilar maqollarga tez-tez murojaat etadilar. Xalq maqollari badiiy asar tilining shirali va ta’sirchan bo‘lishida, emotsional va musiqiyligini oshirishda muhim uslubiy vositadir. Obrazli qilib aytganda, uzukka ko‘z qanday bezak bo‘lsa, maqol ham notiqning nutqiga, yozuvchining tasviriga ana shunday husn, hayotiylik bag‘ishlaydi. So‘z ko‘rki maqol va matal, aforizmlardan foydalanish har bir qalamkashning so‘z boyligini orttiradi, uning nutqini o‘tkir va ta’sirli qiladi. G‘. Salomovning ta’kidlashicha, “Maqol – xalq aql-idrokining mahsuli, uning hukmi, ko‘p asrlik tajribalari majmui, turmushdagi turli voqea-hodisalarga munosabatining ifodasidir. Maqol kundalik hayotda, kishilarning bir-birlari bilan muomala jarayonida tug‘iladi. Xalq maqoli - xalqning mulkidir. Maqol ishlatmagan biron ta xalq, maqol ijod qilmagan biron ta til yo‘q.

Agar maqol – turmushda sinalgan, ma’lum ezgu, tugal, umumiylar ma’no anglatuvchi, ixcham bir shakldagi xalq hikmati bo‘lsa, “matal narsa va hodisalarni obrazli ifodalovchi, tilda keng ishlatiladigan ibora va nutq oborotlaridir. Matal so‘zlovchining o‘z nutqi mazmuniga munosabatini ifodalaydi. Matal kishining xotirasida osonlik bilan saqlanib qoladi”⁵. Yozuvchining hikoya va qissalarida ishlatilgan maqollar, iboralar, o‘xshatishlar, kinoya va majozlar voqealar yo‘nalishiga mos ravishda ifoda etiladi. Adibning bu sohadagi mahorati hikoyalarga yanada aniqlik va tiniqlik kiritib, ular yordamida asar g‘oyasi kitobxonga tez va ta’sirchan yetib boradi. Misol: “Fotima va Zuhra” romanidan *O’zing uchun o’l yetim!* O’zbeklarda yaxshi maqol bor – derdi, ko’pincha, Anna xola.

Zokir, o’zingni bos, uka. Kemaga tushganning joni bir. Menga ishon.

Bo’limdagilaning hammasi bilan yaxshi munosabatda bo’lishga iloji boricha ularning ko’nglini olishga intildi. Lekin ish to’xtab qoldi. “Och qornim tinch qulog’im”. Bu maqol uning eng yaxshi ko’rgan maqoli va hayot dasturi edi.

⁵ Boyjigitov O.I. O’zbek muloqot nutqidagi frazeologik birlıklar:kognitiv va lingvokulturologik tamoyillar: Phd...diss.-Qarshi, 2023. –B. 29

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

kabilar. “YOZ YOMG’IRI” qissasidan *Er-xotinning urishi, doka ro’molning qurishi...* Ota-bobolarimiz to‘qigan bu maqolning qanchalik to‘g‘ri-noto‘g‘riliгини har bir oila o‘zicha tasdiqlaydi. Uylanganiga to‘rt yildan ozgina oshgan Rahim Saidov bu maqolni mutlaqo noto‘g‘ri hisoblardi. *Tahlil:* Ko‘rinadiki, asar qahramonining ijtimoiy holati, tafakkuri, dunyoqarashi haqida ma’lumotlardan iborat tafsilotga sira hojat qolmagan, har bir qahramon o‘z nutqi orqali kimligini, jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyini ro‘y-rost namoyon qilmoqda. Muallif adresatga Rahim Saidov holatining yaqqol tasvirini berish uchun “*kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi deganlaridek*” iborasini qo‘llaydi.

O‘zbek xalq maqollari juda ko‘p variant va sinonimlarga ega. Bu ijtimoiy hayotning turli tomonlarini badiiy va haqqoniy aks ettirishda katta ahamiyat kasb etadi. Maqollardan nutq yoki asar kimga mo‘ljallanganligiga hamda fikni yorqin qilishi, ta’sir doirasiga e’tibor bergen holda o‘rinli foydalanish lozim. Lisoniy madaniyatshunoslik nuqtayi nazardan, ayniqsa, turg‘un o‘xshatishlar, ya’ni frazeologik iboralarning qiyosiy turi alohida diqqatga sazovor. Chunki “turg‘un o‘xshatishlar milliy ong jumbog‘ini yechishga imkon beradigan yorqin obrazli vositalardan biri hisoblanadi”, “dunyoni o‘ziga xos, milliy tarzda ko‘rish o‘xshatish semantikasida aks etadi”⁶ Turg‘un o‘xshatishlar o‘zbek tilining tamomila o‘ziga xos boyligi, xalq milliy-madaniy tasavvuroti va an’analarining betakror ko‘zgusi, bejirim va ta’sirli nutq imkoniyatlariga kuch beradigan tunganmas manba, avlodlar o‘rtasidagi obrazlar vorisiyligini saqlovchi muhtasham vosita sifatida juda katta etnopsixologik, lisoniy madaniyatshunoslik va lingvopoetik qimmatga ega. Agar ikki predmet yoki tushuncha ular o‘rtasidagi farqni ko‘rsatish maqsadida qiyoslangan bo‘lsa, sof qiyosiy konstruksiya shakllanadi (masalan, yer toshdan qattiq), qiyoslash o‘xshatish maqsadini ko‘zda tutganda esa o‘xshatish konstruksiyasi shakllanadi (masalan, yer toshday qattiq). Aytish joizki, sof qiyosga qaraganda o‘xshatishlar nutqda sezilarli darajada katta badiiy-uslubiy va lingvopoetik imkoniyatlarga ega⁷. O‘xshatishni

⁶ Maslova V.A. Ko‘rsatilgan asar. 133–134-betlar.

Лебедева Л.А. Устойчивые сравнения русского языка во фразеологии и фразеографии: Автореф. дисс. ...док. филол. наук. – Краснодар, 1999. – С.20

⁷ Mahmudov N.O‘xshatishlarning til va nutqdagi o‘rni /Til tilsimi tadqiqi. –Toshkent: Mumtoz so‘z, 2017. – B. 160-161
www.tadqiqotlar.uz

yuzaga keltiruvchi grammatik vositalar turlicha:

1. Affikslar: -day(-dek), - simon, -ona, -omuz, -namo, -larcha, -chasiga, -dan
2. So‘zlar vositasida, sifat (o‘xshash, teng), ko‘makchi (kabi, singari, qadar), bog‘lovchi (go‘yo,
go‘yoki), olmosh (o‘zi), ravish (aynan).
3. Izohlovchi izohlanmish munosabatida.

Professor, tilshunos olim N. Mahmudov o‘zbek tilidagi o‘xshatishlarni to‘rt unsurga ajratadi va ularni o‘xshatish subyekti, o‘xshatish etaloni, o‘xshatish asosi va o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi deb nomlaydi. “...o‘xshatishlar o‘ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo‘ladi, nutqning emotsiyal-ekspressivligi, ifodaliligi, ta’sirchanligini ta’minlashga xizmat qiladi. N.Mahmudov, D.Xudoyberganovalar tomonidan tuzilgan “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati”da o‘zbek tilidagi 500 dan ortiq turg‘un o‘xshatishlar jamlangan bo‘lib, bu tadqiqot til taraqqiyoti uchun muhim hisoblanadi.⁸ O‘lmas Umarbekovning “*Odam bo‘lish qiyin*” qissasidan... *Inson... Naqadar buyuk va sharafli nom...* *Unga yetti koinotdagi barcha imtiyozlar hadya etilgan.* *U gapira oladi, shodli kunlarda sevina oladi, qalbi og‘risa ko‘z yosh to‘ka oladi...* *Inson... Qo‘li gul. Jonsiz cho‘pni qaro tuproqqa qadasa,* *Yaratganning marhamati ila yashil daraxtga aylanadi. Sajdaga bosh qo‘yib, dil daftarini yoza oladi, gunohlardan tovba qilib, yelkasiga inson deya atalgan yukni ortib yuradi. Kattalarimizda shunday gap ko‘p uchraydi: "Hammayam odam bo‘lib tug‘iladi. Eng muhimi o‘scha nomga munosib bo‘lishdadir".* Bu parchadan ko‘rinib turibdiki, xalifadek sharaflı nomga ega bo‘lgan insonni Ollohdan najot istab “*dil daftarini yoza oladi*” iborasini ustalik qo‘llaydi.

O‘zbek xalqi purma’no so‘zga, o‘git-u naqlarga boy xalq sanaladi. Ajdodlarimiz azaldan o‘zining hayotiy muammolarini – mehnat mashaqqati, g‘am-anduhi, rohat-farog‘ati, muvaffaqiyat va mag‘lubiyati, rasm-rusumlari hammahammasini maqol va matallarda, naql va barqaror iboralarda ko‘zgudagidek

⁸ Махмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

aks ettirib keladi. Bunday birikmalar tilda tayyor holatda bo‘lib tilning jozibasini, ta’sirchanligini oshirishda xizmat qiladi.

Xalqning til boyligi – uning bo‘yoqdor, serjilo leksikasining, frazeologiya qatlamining boyligi bilan ham o‘lchanadi. O‘zbek tili – ona tilimizning juda boy, ma’nodor, jozibali va rang-barangligi Navoiy zamonidayoq isbotlangan. Maqollar xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribalari, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat’iy qutbiylikda ifodalar ekan, ularda har bir so‘zning ma’no xilmassisligi, iboralarning turg‘unligi, shaklliy barqarorlik ustunlik qiladi. Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, to‘g‘ri ma’noda qo‘llaniladigan, xalq donishmandligi natijasida yuzaga keladigan barqaror birikmalar matallar sanaladi. Maqollar va matallar har ikkalasi ham xalqning hayotini uzoq davrlar mobaynida kuzatish orqali hosil qilgan hayotiy tajribasining ixcham shaklda ifoda topishidir.

Tildagi ko‘pgina frazemalar uchun ekspressiv-emotsional bo‘yoqdorlik ajralmas xususiyat hisoblanadi. Chunki ibora yordamida u yoki bu predmet, hodisa nomlanibgina qolmasdan, o‘sha predmet yoki hodisaga, shaxsga muallifning ekspressiv munosabati ham ifodalanadi. Masalan, asardan *og‘zining tanobi qochgan iborasi* ishlataladi. Bu iboraning dastlabki ijobiy baho ottenkasini bildirsa, keyingisi ba’zan salbiy ma’no nozikligini ifodalaydi. *Og‘zining tanobi qochib* iborasi pochtachi yigitning pul berish jarayonidagi quvonchini bildirib, frazema asl variantidan ham kuchli mubolag‘ani hosil qilgan. Bu esa qahramonning xarakteri, uning yuz ifodasidagi o‘ziga xos o‘zgarishni ijodkorona tasvirlashda qo‘l kelgan. Bu holat asarda *og‘zining tanobi qochmoq*, *og‘zi qulog‘ida bo‘lmoq* iboralari bilan sinonimlik hosil qilgan. Iboraning kuchaytirilgan shakli, o‘z navbatida, asarga yanada emotsiyonallik bergen. Odatda, ibora tarkibidagi komponent o‘zgarishi muayyan shart-sharoit, matn talabi bilan amalga oshiriladi. Badiiy matn talabiga ko‘ra muallif frazemaning leksik tarkibini o‘zgartirish, uning semantik-stilistik vazifalarini kengaytirishi yoki unga yangicha yondashishi mumkin. Agar almashtirish uslubiy, semantik, mantiqiy jihatdan asoslangan bo‘lsa, uning ta’sirchanligi, bo‘yoqdorligi va uslubiy samaradorligi yanada oshadi. Badiiy asar tilining yorqinligi, emotsiyonalspressivligini ta’minlashda omonim, sinonim, antonimlar katta ahamiyat kasb

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

etadi. Asar lug‘at tarkibida leksik-semantik birliklar bilan birga matn ichidagina funksional-semantik vazifani bajargan sinonim va antonimlar ham ko‘p. Bu muayyan leksemaning hosila semalarini aniqlashga yordam berish barobarida, muallifning o‘ziga xos uslubi va so‘z qo‘llash mahoratini ko‘rsatib beradi. “*Nomus*” hikoyasidan. *Zumrad dugani solib, trolleybusga chiqqanida antiqa kubanka kiygan bir yigitdan boshqa hech kim yo‘q edi.*

Yigit unga qarab jilmaydi.

— *Sizdan qo‘rqishdi, — dedi u.*

— *Siz-chi? — kinoya bilan so‘radi Zumrad. — Qo‘rmaysizmi?*

— *Sizni yolg‘iz tashlab ketishdan qo‘rqaman. Zumradning ensasi qotdi.*

Bu ibora odam boshining orqa pastki qismi, ensa suyagi. Ibora yozuvchi tomonidan maqsadli ravishda ishlatilgan bo‘lib, asar bosh personajlaridan biri bo‘lgan Zumrad yigitning harakat va gap-so‘zlaridan g‘ashi kelishiga nisbatan ishlatilgan. Bunda birgina ibora orqali kitobxon oldida butun bir vaziyat oydinlashadi. Yozuvchi matn mazmunidan anglashilib turgan voqelikni ixcham, ta’sirli va yopiq holatda ifodalaydi. Bu birgina ibora orqali yozuvchi Zumradning vaziyatdagi holatini kitobxonga bildirib qo‘yadi. Ya’ni o‘quvchi ushbu vaziyatning kelib chiqish sabablarini ham yaxshi anglab oladi.

Misol: Sotuvchi yana nimalarnidir gapirib, kechirim so‘radi. Kapitan eshitmadni. "Tavuzi qo‘ltig‘idan tushib", so‘nggi samolyotda Toshkentga qaytdi. Rahim Saidov 12—15 -avgust kunlari Oltiariqda bo‘lgan, institutning tajriba uchastkasida. 15 da kechqurun qaytib kelgan.

Tahlil: Rahim Saidovga qo‘llangan “*Tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib*” ibora orqali biz asar qahramonining ruhiy holatini anglab olishimiz mumkin. Shuni aytish joizki, spender muloqotda jinsning ta’siri bo‘yicha o‘z xulosalarini shunday jamladi: “Xulosa qilib aytganda, ayol muloqoti har xil kichik narsalar haqida shirin muloqotga o‘xshaydi, erkaklar esa muhim narsa haqida quruq va qo‘pol suhbatdir”⁹.

Ammo odatiy stereotiplar hamma odamlarga tegishli bo‘lishiga qaramay, ular shaxsiy muloqotni qamrab olmaydi. Misol uchun, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki,

⁹ [https://ru.wikipedia.org/wiki
www.tadqiqotlar.uz](https://ru.wikipedia.org/wiki/www.tadqiqotlar.uz)

ba'zida mojaroli vaziyatlarda ayollar dushmanlik qiladilar, erkaklar esa tinch yo'l tutishadi yoki nizolardan butunlay qochishga harakat qilishadi. Shunday qilib, ba'zi bir stereotiplarga riosa qilgan holda, ma'lum bir sharoitda (ayniqsa, odamlar bir-birlari bilan tanish bo'limganda) erkaklar va ayollarning xatti-harakatlarini taxmin qilish mumkin. Shunga qaramay, stereotiplar gender farqlarining nutqqa ta'sirini o'rghanishda muhim nuqta hisoblanadi, chunki ular nafaqat "xuddi shunday", balki jamiyat me'yorlariga muvofiq "bo'lishi kerak bo'lgan"ni ham ko'rsatadi¹⁰.

Uzoq yillar "tirnoqqa zor" bo'lib ne-ne doktorlar, tabib va folbinlarga qatnagan va hamma narsadan umid uzganida bo'yida bo'lib, farzand ko'rgan aya Munisxonga sig'inish darajasiga yetgan edi. *Tahlil*: Shuningdek, asar tilida personajlar ruhiy holatini ifodalashda so'z bilan birga iboralardan keng va samarali foydalangan. Ibora so'zga nisbatan ham kishilarning ichki kechinmalarini ifodalash va shu asosda emotsiyal funksiya bajarish uchun xizmat qiladi. Mazkur matnning pragmatik xususiyatlariga to'xtaladigan bo'lsak, yozuvchi – O'lmas Umarbekovning o'quvchisiga – adresatga asar qahramoni *Ubaydulla akaning ko'nglida kiri yo'q, hali qishloqqa xos soddaliklari tark etmagan bir jaydarilikni "tirnoqqa zor"* iborasi orqali ifodalab bermoqda. Muallifning o'quvchiga aytmoqchi bo'lgan gaplari asosan, matn ortida joylashadi. Asar qahramoni Ubaydulla akaning ruhiy holatini shu birgina ibora bilan beradi. Yozuvchi obraz yaratar ekan, har bir personajning nutqiy ohangi, xarekteriga mos ravishda iboralarni keltiradi.

"Odam bo'lish qiyin" qissasidan...

Inson... Naqadar buyuk va sharaflı nom... Unga yetti koinotdagı barcha imtiyozlar hadya etilgan. U gapira oladi, shodli kunlarda sevina oladi, qalbi og'risa ko'z yosh to'ka oladi... Inson... Qo'li gul. Jonsiz cho'pni qaro tuproqqa qadasa, Yaratganning marhamati ila yashil daraxtga aylanadi. Sajdaga bosh qo'yib, *dil daftarini yoza oladi*, gunohlardan tovba qilib, yelkasiga inson deya atalgan yukni ortib yuradi. Kattalarimizda shunday gap ko'p uchraydi:"Hammayam odam bo'lib tug'iladi. Eng muhimi o'sha nomga munosib bo'lishdadir" O'lmas Umarbekovning

¹⁰ Воронцов Д.В. Категория «мужчина», «женщина» в социально-психологических гендерных исследованиях // Воронцов Д.В. – Краснодар, 2004. –С.382.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

"*Odam bo'lish qiyin*" romani ham xuddi shu tuyg'uni yoritib bergen inson qismatining yorqin na'munasidir. Asarda odamiylik mulkiga dog' qo'ndirmay asrab yurish nechog'lik qiyin va mas'ulyatli ekanligini yoritib beradi! Asarda ilgari surilgan asosiy g'oya bu muhabbatdek buyuk tuyg'uga bo'lgan sadoqatini hamma ham asrab qola olmasligi. Dunyoning yolg'onchi tuyg'ulariga aldanib qolmaslik, nafsga hech qachon bosh egmaslik kabi tushunchalarni o'quvchiga tushuntirish g'oyasi bor. Asar sarlavhasining tanlanishi yozuvchining nechog'lik mahoratli ekanligini ko'rsatib bergen. Asarga juda ham mos nom qo'yilgan. "*Odam bo'lish qiyin*" o'quvchini diqqatini tortishi aniq. Chunki hamma ham bu dunyoda insoniylik nomini saqlab qolishga harakat qiladi. Asarda qanday yo'ldan borilsa shu nomni saqlab qolsa bo'ladi degan savolga Javob topamiz, shuning uchun shu sarlavha qo'yilgan. Asarda xalqimizning yetuk merosi sanalgan *frazeologizmlardan* ham ko'p foydalanilgan. Masalan, "*Olim bo'lisch oson, odam bo'lisch qiyin*" , "*Tiriklikni har kim har xil tushunadi*" , "*Qanday xohlasang, shunday yasha*" kabi maqollar, "*o'z teng qurlarining uchqun tulpori*", "*qo'y og'zidan cho'p olmagan*", "*og'zi qulog'ida*", "*yuragi chiqdi*" kabi iboralardan foydalanilgan. Shuningdek, *kasb-hunarga oid so'zlar*: usta, me'mor, o'qituvchi, rais, oqsoqol, professor, fermer, dehqon, shifokor, olim va boshqalar. Masalan, asarning bosh qahramoni Abdulla kelajakda olim bo'lischni xohlaydi, Gulchehra esa mohir me'mor bo'lib, Mingbuloqni qaytadan qurishni niyat qiladi. *Toponimlar-joy nomlari-* Mingbuloq, Toshkent, Moskva, Peterburg, Qishloq med-punkti, Qo'qon va boshqa joy nomlari keltirilgan. Asosan voqealar Mingbuloq, Moskvada kechadi. Yozuvchi muqaddima o'rnila bir rivoyatni keltiradi. Asarga kirish, ya'ni Abdullaning Mingbuloqqa kelishi voqeasi bilan boshlanadi. Asarda *Andijon viloyatiga qarashli Mingbuloq qishlog'i hayoti tasvirlanadi*. Asarda Abdullaning buvisini faqat ikki farzandi bo'ladi. Abdulla qishloqqa kelgan kuni tog'asi o'g'il farzandli bo'ladi, umr tilab unga Tursunjon deb ism qo'yishadi. Tursunjonga atab uyda *katta beshik to'yi marosimi* o'tkaziladi. Bu marosim bola uchun *xalqning azaldan meros qolgan urf-odatlaridan biri* hisoblanadi. Yoki qishloqning qurilishida hashar marosimi o'tkaziladi. Bu ham *xalqimizning ko'p yillik an'anasiga aylanib ulgurgan..* Asarda quyidagi iqtiboslar uchraydi:

Asardan iqtibos:

1. *Yaxshi bisottan yaxshi ot qolgani yaxshi.*
2. *Chayon yomon chaqadi lekin u hamma uydan ham chiqavermaydi*
3. *Hunarsiz odamning hassasiz ko'r dan farqi yo'q.*
4. *Bolasiz odam bolaning qadrini biladi.*
5. *Hamma qonunning asosi bor – hayot*

Badiiy matnning tasviri vositalarini hosil qiluvchi leksik-frazeologik, paremik, sintaktik lisoniy vositalari turli shaklda o‘rinli qo‘llanilgan. Ayni paytda, asardagi asosiy mazmunning ustunligi muallifning davr va zamon, qahramonlar ichki dunyosi, fe’l-atvori, voqeа-hodisalarga tanqidiy munosabatini ko‘rsatadi.

Yozuvchi O‘lmas Umarbekovning asarlari matnini sotsiopragmatik tahlil qilish orqali muallifning o‘quvchiga ta’sir kuchini aniqlab olish imkonini paydo bo‘ladi. Asardagi nutqiy aktlar tahlili qahramonlarning so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydigan xususiyatlarini, uning insonga ko‘z ilg‘amas darajadagi ta’sirini namoyon qiladi.

Mazkur zamonaviy tahlil yo‘li orqali asarlarning badiiy qimmatini, lisoniy vositalarning keng imkoniyatlarini ham teranroq anglash imkoniyati paydo bo‘ladi. Asar matnlarda turli ibora, maqol hamda iqtiboslarning faol va o‘z o‘rnida qo‘llanilishi ham alohida kommunikativ va pragmatik maqsadlarning ta’minlanishida juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Кенесбаев С.К. Қазақ тили қалыптанған сөз топтары (қос создер, идиодер мен фразалар), докторлик диссертацияси – Алма-Ата, 1944; Кенесбаев С.К. Фразеологические парные выражения в казахском языке // Известия АН Каз.ССР, серия филологическая. № 82. выпуск 6. – Алма-Ата, 1952. – С. 3-13; Кенесбаев С.К. О некоторых особенностях фразеологических единиц в казахском языке// Известия АН Каз.ССР, серия филологии и искусствоведения, выпуск 1-П. – Алма-Ата, 1954. – С. 6-28; Кенесбаев С.К. Қазақ тилининг фразеологиялық создиги. – Алма-Ата, 1977; Рахматуллаев Ш.У. Основные грамматические особенности образных глагольных фразеологических единиц

современного узбекского языка. АКД. – М., 1952. – 21 с.

2. Долганов Л.И. Пути развития идиоматики в современном турецком языке. АКД. – М., 1952; Сайфуллин И.Т. Устойчивые словосочетания в современном уйгурском языке. АКД.. – Л., 1953; Ахатов Г.Х. Фразеологические выражения в татарском языке. АКД. – Казань, 1954 ва бошқалар.
3. Rahmatullayev Sh.O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari.– Toshkent: Fan, 1966. – Б. 145.
4. Boyjigitov O.I. O'zbek muloqot nutqidagi frazeologik birliklar:kognitiv va lingvokulturologik tamoyillar: Phd...diss.-Qarshi, 2023. –В. 29
- 5 .Лебедева Л.А. Устойчивые сравнения русского языка во фразеологии и фразеографии: Автореф. дисс. ...док. филол. наук. – Краснодар, 1999. – С.20
6. Mahmudov N.O'xshatishlarning til va nutqdagi o'rni /Til tilsimi tadqiqi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2017. – В. 160-161
7. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. Toshent: Ma'naviyat, 2013.
- 8: <https://ru.wikipedia.org/wiki>
9. Воронцов Д.В. Категория «мужчина», «женщина» в социально-психологических гендерных исследованиях // Воронцов Д.В. – Краснодар, 2004. –С.382.
10. Ergashev I., Abdullayev B.B., Xudaynazarov A.O., Berdiyeva M.I. Transformation of Youth and the System of Values. Mediterranean Journal of Basic and Applied Sciences (MJBAS) Volume 6, Issue 4, Pages 24-32, October-December 2022 URL: https://www.researchgate.net/profile/Barkhayotjon-Abdullaev/publication/365471897_Transformation_of_Youth_and_the_System_of_Values/links/6376577454eb5f547cde84a9/Transformation-of-Youth-and-the-System-of-Values.pdf